IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 22 Issue 01 IYUN 2026

KVARTET ASARLAR YARATISHNING METODOLOGIK BOSQICHLARI

Abdusattorov Abdujalil Abduvali o‘g‘li

Farg‘ona davlat universiteti

Vokal va cholg‘u ijrochiligi kafedrasi mudiri

Torli kvartet Yozef Gaydn ijodida XVIII asrning ikkinchi yarmida kamer musiqasining genetik tomondan raqsona syuitaga tutashuvchi va keng yoyilgan janrlari (divertisment, kassatsiya, serenada) asosida uzil-kesil sof ko‘rinishda shakllanib ulgurdi. Gaydn kvartetni to‘rt qismli pesadan iborat bo‘lish kerak ekanligini qonuniyat darajasiga olib chiqdi va strukturaviy jihatdan simfoniyaga o‘xshash bo‘lgan kompozitsion ketma-ketlikni joriy etdi: birinchi qism – sekin sur’atdagi qism – menuet – tez sur’atdagi final.

Vena klassik davri kvartet uchun yuksalish, gullab-yashnash davri bo‘ldi va Motsart hamda Betxovenlar Gaydn izidan borib, janrning rivojlanishiga katta hissa qo‘shdilar. XIX asrning ikkinchi yarmida kompozitorlarning torli kvartetga bo‘lgan qiziqishlari biroz susayganday ko‘rinadi, ammo XX asr chegarasida bu qiziqish qaydadan uyg‘ondi – xususan, Ikkinchi vena maktabi nomoyondalari ijodida. Rus musiqasida kvartet an’anasining asoschilari A.P. Borodin va P. I. CHaykovskiy bo‘ldilar, Ularning bu boradagi davomchilari sifatida esa S. I. Taneev, XX asrda ijod etgan D. D. SHostakovichlar sanash mumkin. Ular zamonaviy kvartet taraqqiyotini belgilab berishdi.

XX asrga kelib torli kvartet borasidagi asarlarda ancha o‘zgarishlar namoyon bo‘lgan edi. XX asr kompozitorlarining torli kvartetlari hatto Arnold SHyonberg ijodida ham saqlab qolingan klassik to‘rt qismli tuzilishda emas, balki undan farqli shaklda yaratilgan. Bu vaqtga kelib kvartet istalgan sondagi qismlardan iborat bo‘lishi mumkin bo‘lib qoldi. Bir qismli shaklda yozilgan kvartetlar yoki bir-biriga ravon ulanib ketuvchi (*attacca*) ko‘p qismli kvartetlar juda ham keng yoyildi.

YAna bir yangiliklardan shuni aytish joizki, kvartetlarda shtrixlar tufayli yangi jabhalar kashf etildi. Vebernning kvartetli pesalaridayoq tovush xosil qilishning umuman erkin va turli tuman usullari qo‘llanilgan: flajoletlar, col legno, sul ponticello; qadimgi musiqa uchun noodatiy bo‘lgan tezkor passajlar, pitssikato tarzidagi ijroviy usullar mustahkam o‘rin egalladi. Imkon boricha qisqartirilgan Vebern pesalarida bunday shtrixlar deyarli har bir taktda ketma-ket almashinib kelishi mumkin, agar bir taktning o‘zidayoq turli shtrixlar ishlatilmasa.

1970-yillarning boshlarida bu yo‘nalish shunday darajaga etib bordiki, barcha asarlar deyarli tovush hosil qilishning faqat noan’anaviy usullaridan iborat bo‘ladigan bo‘lib qoldi (masalan, Xelmut Laxenmanning Gran Torso asari). Ba’zi bir kompozitorlar undan oldinroq ham bunday kvartetlari yaratishgan. Masalan, Penderetskiyning kvartetlari bunga misol bo‘la oladi. Bunga zid ravishda kvartetning shakllanishida an’anaviy tamoyillarga rioya qilib, ularni saqlagan holda yaratilgan kvartetlar ham paydo bo‘ldi. Masalan, Morton Feldmanning ikkinchi kvarteti.

Bu bo‘limning mazmunidan kelib chiqib mashhur kompozitorlarning torli kvartetlarini mantiqiy tartib bo‘yicha keltirishni lozim deb topdik. Bu ro‘yxatda torli kvartetning rivojlanish bosqichlarini yaqqol ko‘rish mumkin:

- YOzef Gaydn — 68 ta asar, jumladan “Russkie kvartetы” (“Ruscha kvartetlar”,1781., buyuk knyaz Pavlo Petrovichga bag‘ishlangan);

- Volfgang Amadey Motsart — 23 ta asar, xususan oltitasi Gaydnga bag‘ishlangan (Op.10).
- Lyudvig van Betxoven — 16 ta asar, jumladan «Russkie kvartetы» (ular «kvartetы Razumovskogo» ham deb nomlanadi, 1808)
- Frans SHubert — 15 ta asar, jumladan o‘n to‘rtta torli kvartet «Smert i deva» («Devushka i Smert»)
- Feliks Mendelson — 6 ta asar
- Robert SHuman — 3 ta asar
- Bedrjix Smetana — kvartet «Iz moey jizni»
- Iogannes Brams — 3 ta asar
- Antonin Dvorjak — 14 ta asar
- Pyotr Ilich CHaykovskiy — 3 asar
- Edvard Grig — 2 ta asar (ikkinchi kvarteti tugallanmagan)
- Sergey Ivanovich Taneev — 9 ta asar
- Anton Brukner — 1 ta asar
- Gustav Maler — 1 ta asar
- Sezar Frank — 1 ta asar
- Klod Debyussi — 1 ta asar
- Moris Ravel — 1 proizvedenie
- Leosh YAnachek — 2 ta asar
- Karol SHimanovskiy - 2 ta asar
- Arnold SHyonberg — 4 ta asar
- Alban Berg — 2 ta asar, ikkinchisi – «Lirik syuita» (1926)
- Anton fon Vebern — torli kvartet (1938); Torli kvartet uchun besh pesa (1909)
- Bela Bartok — 6 ta asar
- Igor Fedorovich Stravinskiy – Torli kvartet uchun uch pesa (1914)
- Boguslav Martinu — 7 ta asar
- Nikolay YAkovlevich Myaskovskiy — 13 ta asar
- Sergey Sergeevich Prokofev — 2 ta asar
- Dmitriy Dmitrievich SHostakovich — 15 ta asar
- Dariyus Miyo — 16 ta asar
- Eytor Vila Lobos — 17 ta asar
- Boris Lyatoshinskiy — 4 ta asar
- Elliott Karter — 5 ta asar
- Alan Xovaness — 5 ta asar
- Vitold Lyutoslavskiy — torli kvartet (1964)
- Morton Feldman — 2 ta asar
- Luidji Nono —«Fragmente-Stille. An Diotima» kvarteti (1980)
- Kshishtof Penderetskiy — 3 ta asar
- Alfred SHnitke — 4 ta asar
- Xelmut Laxenman — 3 ta asar
- Brayan Fernixou — 5 ta asar
- Volfgang Rim — 12 ta asar

O‘zbekiston kompozitorlari G. Mushel, M. Burhonov, S.YUdakov, B. Gienko, Ik. Akbarov, S. Jalil, F. YAnov YAnovskiy, T.Qurbonov va boshqalar turli kamer musiqa, xususan torli kvartet asarlari yaratishgan. O‘zbek kamer-cholg‘u musiqasi o‘zining ilk mustaqil qadamlarini

tashladi 40-yillarda tashladi. 40-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab syuitali asarlar – kamer musiqaning boshqa janr namunalari, xususan, sonatali siklik asarlar tomonidan ikkinchi planga surildi. Eslatib o‘tamizki, O‘zbekistonda siklik kamer-cholg‘u musiqaning asoschisi M.Burhonov edi. G. Mushel, S. YUdakov va boshqalarning syuitalarini hisobga olmaganda uning fortepiano, skripka va violonchel uchun yozilgai triosi (1940) uzoq vaqtgacha birinchi va yagona asar bo‘ldi. YAkka fortepiano (solo) musiqasida qator miniatyuralar («Ariya», «Skerso», «Kuy», «Tokkata» va boshq.), alohida to‘plamlar (bular orasida «Engil pesalar albomi», «Konsertli etyudlar», «Musiqali siluetlar») va siklik asarlar («Pushti rang sonatina», «24 prelyudiya va fugalar») yaratgan G. Mushel ayniqsa aktiv ijod qilgan. Aytib o‘tilgan asarlar misolida kompozitorning o‘zbek milliy merosiga munosabatida ma’lum evolyusiyani kuzatish mumkin. Agar 30–40-yillar chegarasida yaratilgan dastlabki asarlariga Mushel, xalq musiqasining ommabop namunalarini «so‘zma-so‘z» (ya’ni musiqali sitata shaklida) kiritavergan bo‘lsa, keyinchalik u ko‘proq xalq musiqasi xususiyatlarini xarakterli lad-intonatsiyalar, metr-ritm va h. k. ga tayanish yo‘li bilan aks ettirishga intilgan.

O‘zbekistonda **kvartet** janri meros namunalarini oddiy qayta ishlashga asoslangan syuitalardan murakkab siklli asarlargacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tdi. Dastlabki syuitalardan M. Levievning xalq kuylariga va S. YUdakov, G. Sobitovlarning original temalariga yozilgan asarlarini aytib o‘tish mumkin. 40–50-yillar atrofida sonatali va siklli asarlar yaratishga harakat qilinib, ilk torli kvartetlar yozildi. Bularning aksariyati keyingi (60-yillar boshlarida yaratilgan) asarlar singari raqsbop qo‘shiq, ba’zan folklor kuylariga asoslangan. Masalan, D.Soatqulov o‘z kvartetini «Farg‘ona kvarteti» deb tasodifan nomlagan emas. Mazkur kvartetning intonatsion mazmuni Farg‘ona vodiysida keng tarqalgan ashula va cholg‘u kuylariga asoslangan. Asarning to‘rt qismidagi temalarni musiqali meros namunalari bilan taqqoslab, «Farg‘ona kvarteti»da uch xil tematizmni belgilash mumkin.

B. Gnenko besh kvartet muallifidir. Diqqatni jalb qiladiganlari o‘zaro bir-biriga yaqin bo‘lgan (50- yillar oxiri–60- yillar boshida yaratilgan) ikknnchi, uchinchi va to‘rtinchi kvartetlardir. Ularning birinchi qnsmlari sonata allegro si xotimalari rondo shaklida, ikkinchi qismi janr xarakterida (noktyurn, romans kabi), uchinchi qismlarn skerso ruhida yozilgan to‘rt qismli sikllardir. Kvartetlar va ularning tema-tizmi, rivojlantirish uslublarn ham bir-biriga yaqin.[1]

SHunday qilib, o‘ttiz yildan ziyodroq vaqt mobaynida O‘zbekistonda kamer musiqa o‘zining ma’lum rivojlanish yo‘lini bosib o‘tdi. G Mushel, M. Burhonov, B. Gienko, Ik. Akbarov, S. YUdakov, G.Mushel, T.Qurbonov, F.YAnov-YAnovskiy, S.Saparov, B.Gienko, M.Ashrafiy, S.Varelas, A.Berlin, X.Izomov, R.Abdullaev, D.Saidaminova, N.Zokirov, M.Bafoev, X.Raximov, M.Tojiev, A.Mansurov, M.Otajonov, A.Xoshimov, B.Umidjonov, D.Omonullaeva, D.YAnov-YAnovskiy, N.G‘iyosov, O.Abdullaeva N.Erkaev, A.Safarov, M.Muxtorov, A.Abdusattorov va boshqa ko‘plab kompozitorlar o‘z njodlari bilan talaygina tajribani qo‘lga kiritdilar. Barcha cholg‘u kamer janrlari orasida aynisa torli kvartetda yaxshi natijalarga erishildi. Kamer cholg‘u ijodiyotining rivojlanishi uchun dunyo musiqa san’ati yutuqlari va ko‘p asrli o‘zbek monodiyasining boy an’analarini uyg‘unlashtirib ijodiy bog‘lash masalasi alohida ahamiyatga molikdir.

Adabiyotlar ro‘yhati:

1. [Асафьев Б. В. Избр. статьи о музыкальном просвещении и образовании. М.—Л., 1965.].

[1] Ўзбек музикаси тарихи, тузувчи Т. Е. Соломонова, Тошкент «Ўқитувчи» 1981, 149-150 б.

2. [Апраксина О. А: Современные требования к школьному учителю-музыканту. — В кн.: Музыкальное воспитание в школе. Вып. 15. М,, 1982.].
3. [Абдуллин Э. Б. Методы новой системы музыкального обучения. — В кн.: Выбор методов обучения в средней школе. М., 1981.].
4. [В.А. Сухомлинский. Избранное. – М.: Педагогика, 1991.].
5. [Апраксина О. А. О возможностях и содержании исследовательской работы учителя-музыканта общеобразовательной школы. — В кн.: Музыкальное воспитание в школе. Вып. 12. М., 1977.].